

BYUDJET TASHKILOTLARINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11521394>

Mirzayev Sayfullo Ma'murjonovich

O'zbekiston Respublikasi bank moliya akademiyasi
tinglovchisi

Abdulazizov Shuhratjon Botirjon O'g'li

TDIU o'qituvchisi

Annotatsiya. Tezisda byudjet muassasalarini moliyalashtirishni takomillashtirish bo'yicha tahlillar, byudjet mablag'lari samardorligini ta'minlashda, hozirgi kunda moliyalashtirishdagi afzalliklari va kamchiliklari, milliy va jahon amaliyotida, mavjud muammolar atroflicha o'rganib chiqilgan. Davlat byudjeti mablag'larini maqsadli sarflash hamda byudjet muassalarini moliyaviy ta'minlash bo'yicha mulohaza yurtilgan.


Kalit so'zlar: Davlat byudjeti, byudjet tashkiloti, dasturiy byudjetlashtirish, xarajatlar smetasi, rivojlantrish jamg'armasi, moliyalashtirish.

Mamlakatimizda byudjet tizimi bosqichma-bosqich isloh qilinib davlat byudjetining samarali ijro etilishi natijasida normativ-huquqiy va tashkiliy asos yaratildi. Xalqaro maydonda turli moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotgan hozirgi sharoitda byudjet mablag'laridan oqilona va samarali foydalanish, byudjet defitsitini oldini olish dolzarb masalalardan biri sanaladi. Byudjet tashkilotlari byudjet mablag'larining asosiy iste'molchisi hisoblanib Davlat byudjeti xarajatlarini tashkil etadi va xarajatlar smetasi asosida byudjetdan moliyalashtiriladi. Shu bilan birga, byudjet tashkiloti qonunchilik muvofiq byudjetdan tashqari mablag'lar yuzasidan tashkil bo'lish manbalari va foydalanish yo'nalishlari ko'rsatilgan holda byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smetalar doirasida xarajatlarni amalga oshiradi.

Byudjet tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999- yil 3-sentyabrdagi — “Byudjet tashkilotlarini mablag’ bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida”gi 414-sonli Qaror bilan belgilab berilgan byudjetdan tashqari mablag'larga ham ega bo'lishi mumkin. Ushbu qarorga asosan, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan byudjet tashkilotlari quyidagi byudjetdan tashqari mablag'larni jalb qilish va o'zining daromadlarini kengaytirish huquqiga ega:

- faoliyat turi bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotishdan olingan daromadlar;
- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan byudjet tashkilotlariga homiylik (beg'araz) yordami berilishidan olinadigan qo'shimcha daromadlar.
- byudjet tashkilotlari tomonidan vaqtincha foydalanilmayotgan binolar va davlatning boshqa mol-mulkini boshqa tashkilotlarga ijara berishdan tushumlar.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 4-moddasida byudjet tashkilotlariga quyidagicha ta'rif berilgan: —*Byudjet tashkiloti* – davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda davlat hokimiyati organlarining qaroriga ko'ra tashkil etilgan, davlat byudjeti mablag'lari hisobidan saqlab turiladigan notijorat tashkilot.



Bu tashkilotlar asosan yuridik shaxs maqomiga ega bo'lib, ularning faoliyati bu maqomning barcha talablariga (moddiy-texnika bazasi va faoliyat sohasi bo'yicha xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanish uchun etarli sharoitning mavjudligi, buxgalter kadrlarning mavjud bo'lishi, shaxsiy hisobraqamining mavjud bo'lishi va sh.k.) javob berishi kerak.

Hozirgi kunda byudjetdan ajratilayotgan mablag'lar samardorligiga erishishda har bir sarflangan mablag'larni samarsi o'laroq rejalashtirish amaliyoti sekin-asta kirib kelmoqda. Byudjetdan mablag' oluvchilar kesimida byudjetni taqsimlash va ularning byudjet vakolatlarini kengaytirish mexanizmining joriy etilishi bilan byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilarning o'z maqsadlarini belgilash va muvofiq ravishda aniq tadbirlarini rejalashtirish imkoniyatlari ham kengayib boradi. Asosiy e'tibor byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratiladi. Shundan kelib chiqqan holda, ajratilgan byudjet mablag'laridan foydalanishning samaradorligi va natijadorligini baholash ko'rsatkichlarini kengaytirish bo'yicha tegishli choralar ko'rish zarur. Ayni paytda "Dasturiy byudjetlashtirish"ni joriy etish uchun zarur bo'lgan mexanizmlar aniqlashtiriladi, mazkur tizimning afzallik va kamchiliklari o'rganilib, joriy va yangi tadbirlarni moliyalashtirish xarajatlarini aniqlash uslublari ishlab chiqiladi. Jumladan, amaldagi byudjet tasnifiga o'zgartirish kiritilib, davlat xarajatlarini dasturlar bo'yicha tasniflab joriy etish ko'zda tutilmoqda. Vazirlar Mahkamasining "2020–2024 yillarda O'zbekiston Respublikasining davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Strategiya davlat moliyasi to'g'risida jamoatchilikka keng qamrovli ma'lumotlar berish va shaffoflikni ta'minlash, samaradorlik va natijadorlikka bosqichma-bosqich erishishga qaratilgan fiskal siyosatga o'tish uchun strategik yondashuvlarni ishlab chiqish hamda budget jarayoni ishtirokchilarining mas'uliyati va javobgarligini oshirish kabi 6 ta asosiy yo'nalishga bo'lingan. Ushbu 6 ta yo'nalishdan 1-yo'nalish soliq-budget siyosatiga strategik yondashuvni tatbiq etish maqsadida o'rta muddatli budget asoslarini ishlab chiqish hamda yillik budgetni shakllantirishning yangi "natijaga yo'naltirilgan budget" tizimini joriy etish etib belgilangan. Bu ham byudjet tashkilotlari mablag'larini samaradorligiga erishishda muhim omil no'lib xizmat qiladi

Xulosa qilib aytganda, byudjet tashkilotlarining qonunchilik bilan belgilab qo'yilgan rasmiy manbalardan oladigan daromadlari va tushumlari hamda ular bo'yicha xarajatlarni amalga oshirish davlat byudjeti g'azna ijrosi mexanizmlari

bilan qamrab olingan bo-lib, byudjet tashkilotiga tegishli mablag'larning (byudjet va nobyudjet) samarali, maqsadga muvofiq va oqilona ishlatilishini ta'minlash uchun xizmat qiladi, bu mablag'larning shakllanishi va ishlatilishining dastlabki va joriy nazoratini amalga oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Yuldashev A., Zayliev A., Yuldashev A. Moliyaviy siyosat va uning asosiy yo'nalishlari//Biznes-Ekspert jurnali. – T., 2017. - №7. – B. 11-12.
2. Gulyamov S.S., Jumaev N.X., Raxmonov D.A., Tashxodjaev M.M. Ijtimoiy sohada investitsiyalarning samaradorligi. Monografiya. –T.: IQTISODIYOT, 2019. – 342 b.
3. Xusainov M. Mahalliy byudjetlarni klasterli tahlil etish//Iqtisodiyot va ta'lim jurnali. – T.: TDIU, 2011 y. - №6. – B. 117-120.
4. Абдуллаев А.Ф. Методологические аспекты финансирования дошкольных образовательных учреждений//Moliya va bank ishi elektron ilmiy jurnal. – T.: BFA, 2019. - №2. – S. 27-36.
5. Новак Е. В. Интегратсиya сметного ценообразованиua и бюджетированиua в строительстве: автореферат ... к.э.н. – М.: Российский университет кооперации, 2011. – 25 с